

“SWEEP” DEPOZIT MAHSULOTI BO‘YICHA

_____ -sonli
(namunaviy shakl)

_____ sh.

«__» _____ 20__ y.

_____ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi _____ bir tomondan, bundan keyin Mijoz deb yuritiladi, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB nomidan _____ ishonchnoma asosida ish yurituvchi _____ BXO/BXM boshqaruvchisi _____, bundan keyin Bank deb ataladi, ikkinchi tomondan, birgalikda Taraflar deb ataladi, ushbu depozit shartnomasini (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb yuritiladi) quyidagicha tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Bank mazkur Shartnomaga asosan Yuridik shaxs maqomiga ega va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmay faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub’ektlari hisobvaraqlaridagi mablag‘larini naqd pulsiz shaklda masofadan boshqariladigan muddatli depozitlarga qabul qilish, unga foizlar hisoblash, depozit va unga hisoblangan foizlarni qaytarish majburiyatini oladi.

1.2. Mijoz depozit hisobvarag‘idagi mablag‘larni va unga hisoblangan foizlarni Shartnoma shartlariga asosan Dasturiy ta‘minot orqali masofadan boshqarish huquqiga ega.

2. Depozitning shartlari

2.1. Depozit nomi: “Sweep”;

2.2. Depozit turi: muddatli, *(hisobvaraqa qo‘shimcha mablag‘ kirim qilish imkoniyati mavjud)*;

2.3. Depozit valyutasi: Milliy valyuta “So‘m”;

2.4. Depozitning minimal miqdori: asosiy va ikkilamchi talab qilib olinguncha hisob raqamlarda turgan pul mablag‘ining minimal miqdori (100 000 000 so‘m)dan ortiq qismi;

2.5. Depozitning amal qilish muddati: maksimal muddat – 90 kun (3 oy). Depozit mablag‘lari har kuni bank ish kuni yakunlanishi bilan depozitga olinadi va ish kuni ochilishi bilan qaytarib beriladi.

2.6. Depozitning yillik foiz stavkasi: yillik 3%.

Bunda, depozitning foiz stavkasi Markaziy bank tomonidan belgilanadigan asosiy stavka, pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalarining pasayishi, pul bozoridagi tebranishlar va boshqa holatlarni hisobga olgan holda Bank tomonidan Mijozga xabar bergan holda pasaytirilishi mumkin. Ushbu holat shartnomadan bir tomonlama o‘zgartirish hisoblanmaydi, balki Fuqarolik kodeksining 763-moddasida belgilangan huquqlarni amalga oshirish sifatida baholanadi

2.6.1. Foizlarni to‘lash: pul mablag‘larning depozit hisob raqamiga kelib tushgan kunning ertasidan boshlab, to shu oyning oxiriga qadar hisoblanib, keyingi oyning 5-sanasiga qadar to‘lab beriladi. Keyinchalik foizlar oyning 1-sanasidan, to oyning oxiriga qadar to‘liq turgan oy uchun hisoblanib, har keyingi oyning 5-sanasiga qadar to‘lanadi.

Ushbu shartnoma shartnomada belgilangan muddatda depozitdan foydalanganlik uchun bank depozitning haqiqiy qoldig‘iga foizlar hisoblaydi. Bank tomonidan hisoblangan foizlarni to‘lash har oyda amalga oshiriladi, depozitning haqiqiy jalb qilingan muddati uchun hisoblangan foizlar to‘liq oy uchun mazkur bandga muvofiq hisoblangan holda amalga oshiriladi.

2.7. Depozitni to‘ldirish imkoniyati: Mavjud.

2.8. Depozit muddati tugashiga qadar pul mablag‘larini qisman qaytarish imkoniyati: Mavjud.

2.8.1. Hisobvaraqdan qisman mablag‘ chiqim qilish imkoniyati: depozit minimal miqdoridan oshgan qismi chiqim qilinishi mumkin.

2.9. Depozit muddatidan oldin qisman qaytarilganda: depozit minimal miqdoridan oshgan

qismini muddatidan oldin chiqim qilsa, foizlar depozitdan haqiqiy foydalangan muddati uchun to'lab beriladi.

2.10. Depozit muddatidan oldin to'liq qaytarilganda: Agar depozitning to'liq miqdori muddatidan oldin chiqim qilinsa, barcha hisoblangan va to'langan foizlar depozit qayta hisob-kitob qilinib, depozitning summasidan ushlab qolinadi.

Qayta hisob-kitob qilinganda bankda qoladigan mablag'lar (to'langan foizlar, komissiya to'lovlari va boshqa harajatlar) undirish uchun hisobvaraqda qoldiq summalar yetarli bo'lmasa, bank FKning 783-moddasi tartibida Mijozning boshqa hisobvaraqlaridan mablag'larni aktsepsiz yechish huquqiga ega bo'ladi.

2.11. Mijoz quyidagilardan xabardor ekanligini tasdiqlaydi:

- Depozit shartlarida belgilangan boshqa shartlar hamda quyidagilar bilan mazkur shartnoma shartnomasini imzolash jarayonida tanishtirilganligi;

- Bank tomonidan depozitning asosiy shartlari to'g'risidagi axborot varaqasi taqdim etilganligi;

- "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasiga asosan kafolatlash obyekti hisoblangan depozit bo'yicha to'lanadigan kompensatsiya miqdori ikki yuz million so'mdan oshmasligini;

- kafolatlash obyektining kafolatlangan depozit miqdoridan oshadigan qismini qonunchilikda belgilangan tartibda bankdan talab qilishga;

- "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunga muvofiq, o'z mansabdor shaxslarining shaxsga doir ma'lumotlari (shu jumladan, kredit tarixiga oid ma'lumotlar) Bank tomonidan ishlov berilishiga va uchinchi shaxslarga taqdim qilinishiga shartlarsiz va muddatsiz o'z roziligini berganligini (shartnoma shartnomasining ushbu sharti u bekor bo'lgandan so'ng ham o'z kuchini saqlaydi);

- Naqd pulsiz shaklda kirim qilingan depozitlarni naqd pulda berilishida hamda depozit hisobvarag'ida turgan pul mablag'larini boshqa banklarga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan bank operatsiyalari uchun Bank tariflarida belgilangan miqdorda komissiya olinishidan xabardor ekanligini.

2.12. Agar Mijoz muddatli depozitni muddati tugagunga qadar qaytarib berishni talab qilmoqchi bo'lsa, u bu haqda Bankni depozitni olishni rejalashtirayotgan sanadan kamida bir oy oldin yozma tartibda xabardor qilishi lozim.

3. Depozitga foizlar hisoblash va to'lash tartibi

3.1. Depozitga foizlar har kuni yillik bazaviy davr - 365 kundan kelib chiqqan holda hisoblab yoziladi. Foizlar har kuni hisoblab boriladi va oy yakunlanganidan keyin to'lab beriladi. Bunda depozitga hisoblangan foizlar haqiqatda turgan kun uchun to'lab beriladi. Depozit mablagi (depozit minimal miqdoridan oshgan qismini) muddatdan oldin talab qilib olinganda foizlar depozitdan haqiqiy foydalangan muddati uchun to'lab beriladi.

3.1.1. Agar depozitning to'liq miqdori (*minimal miqdori ham*) muddatidan oldin chiqim qilinsa, barcha hisoblangan va to'langan foizlar shartnomaning 2.10-bandiga asosan qayta hisob kitob qilinib asosiy depozit summasidan ushlab qolinadi.

3.2. Depozit summasi Mijozning nomiga ochilgan 20400-"Jamg'arma depozitlar" hisobvarag'ida yuritiladi. Depozit summasiga foizlar kunlik hisoblanib, Mijozning nomiga ochilgan 22400 - "To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar" hisobvarag'ida yig'ib boriladi.

3.2.1. Bir oy to'lgandan so'ng foizlar, depozit qo'yilgan sanadan keyingi oyning keyingi kunida mijozning talab qilib olinguncha xisob raqamiga o'tkazib beriladi Mijozning 202%- "Talab qilib olguncha" hisobvarag'iga elektron shaklda kirim qilinadi. Ushbu mablag'larni Mijoz Shartnoma shartnomasi va depozit shartlariga asosan mustaqil tasarruf etadi.

3.3. Saqlash muddati tugagandan keyin talab qilib olinmagan depozitlar Mijozning "Talab qilib olguncha" hisobvarag'iga o'tkaziladi va bu davrlar uchun depozitga foizlar hisoblanmaydi.

3.4. Foizlar depozit mablag'i Bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u Mijozga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra uning hisobvarag'idan o'chirilgan kundan oldingi kungacha bo'lgan davrga hisoblanadi. Bunda foizlarni hisoblash tartibi "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi nizom"ga (2023-yil 29-sentabrdagi 3460-son ro'yxatga olingan) muvofiq amalga oshiriladi.

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. Mijozning huquqlari:

4.1.1. Ushbu Shartnoma shartnomasiga asosan joylashtirilgan Depozit mablag'larini mazkur shartnoma shartlariga asosan tasarruf etish;

4.1.2. Depozit shartlari "O'z sanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvining qaroriga asosan tasdiqlangan bo'lib, mahsulot shartlariga asosan belgilanadi.

4.2. Mijozning majburiyatlari:

4.2.1. Masofadan turib muddatli depozit hisobvarag'i ochish uchun Bank tizimida bank hisobvarag'i mavjud bo'lishi;

4.2.2. Depozitga pul mablag'ini kirim qilish uchun hisob-varaqlarida depozit turiga kirim qilinishi lozim bo'lgan miqdordagi mablag'iga ega bo'lishi;

4.2.3. Muddatli depozit hisobvarag'ini ochish uchun kerakli bo'lgan barcha amaliyotlarni ketma-ketlikda amalga oshirish;

4.2.4. Depozit hisobvarag'idan amaliyotlarni amalga oshirish davomida dasturdagi uzilishlar yoki texnik nosozliklar haqida Bank tarmog'ini xabardor qilish;

4.2.5. Dasturga kirish uchun berilgan "Login", "Parol" va "PIN" kodni boshqa shaxslarga oshkor qilmaslik;

4.2.6. Shartnomaning 2.5.-bandida belgilangan muddatga rioya qilish.

4.3. Bankning huquqlari:

4.3.1. Mijoz tomonidan depozit summasi muddatidan oldin talab qilib olinganda hisoblangan va to'langan foiz summalarini shartnomada belgilangan miqdorda qayta hisob-kitob qilish hamda hisobvaraqdagi qoldiq mablag'laridan chegirib qolish;

4.3.2. O'zbekistan Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mijoz hisobvarag'i sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat ijrochisi va boshqa vakolatli organlar tomonidan xatlanganda (band solinganda) hisobvaraqa orqali amaliyot bajarishni to'xtatish va hisobvarag' xatlanganligi oqibatida foydalanilmagan davr uchun foiz hisoblamaslik;

4.3.3. Depozit muddati tugagan kunning ertasidan kechiktirmagan holda yoki muddatidan oldin qaytarish talab qilinganda 30 bank kuni ichida depozit mablag'ini mijozning talab qilib olinguncha hisobvarag'iga o'tkazish;

4.3.4. Depozitning foiz stavkasi Markaziy bank tomonidan belgilanadigan asosiy stavka, pul-kredit operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarining pasayishi, pul bozoridagi tebranishlar va boshqa holatlarni hisobga olgan holda pasaytirish. Bunda, foiz stavkasi kamaytirilishidan 15 (o'n besh) kalendar kuni oldin Mijozga uning shartnomada ko'rsatilgan manziliga yozma xabarnoma yoki Bankning masofaviy xizmat ko'rdatish dasturidagi Mijozning akkauntiga xabarnoma yuboriladi. Xabarnoma yuborilgan kundan boshlab, 15 (o'n besh) kalendar kun o'tganidan so'ng Mijoz foiz stavkasi pasaytirilishi haqida lozim darajada xabardor qilingan hisoblanadi va shu kundan boshlab kamaytirilgan foizlar qo'llaniladi.

Mijoz o'zining pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida Bankni 5 (besh) kunlik muddatda yozma shaklda xabardor etishi shart. Mijoz o'zining pochta manzili o'zgarganligi haqida belgilangan shaklda va tartibda xabardor qilmagan taqdirda, Bank bilan munosabatlarda pochta manzili o'zgarganligini vaj qilib ko'rsatishga haqli emas.

4.3.5. Bank shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bosh tortib, shartnomani bekor qilishga haqli. Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortish orqali uni bekor qilish uchun bu haqda Mijozga xabar berishning o'zi yetarli hisoblanadi. Mazkur holatda, shartnomaning 2.10-bandidagi shartlar qo'llanilmaydi. Foizlar depozitdan haqiqiy foydalangan muddati uchun hisoblanadi.

4.3.6. Bank tomonidan xizmatlarni ko'rsatish jarayonida shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda, bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida Mijoz yozma tushuntirish bergunga qadar ushbu xizmatlarni ko'rsatishni bir kundan kam bo'lmagan muddatga to'xtatib turish yoki ushbu xizmatlarni ko'rsatishni rad etish.

4.4. Bankning majburiyatlari:

4.4.1. Depozit shartlarini elektron ko'rinishda Bankning www.sqb.uz saytidagi aks ettirib borish;

4.4.2. Shartnoma shartnomasi Mijoz tomonidan akseptlaganidan so'ng, depozit mablag'larini kirim qilish hamda depozit bo'yicha operatsiyalarni qayd etib borish maqsadida Mijozning nomiga

avtomatik tarzda hisobvarag‘larni ochish;

4.4.3. Ushbu shartnomada belgilangan shartlar asosida depozitga foizlarni hisoblab borish va to‘lash hamda Mijozning birinchi talabiga ko‘ra depozitdagi pul mablag‘larini elektron shaklda, naqd pulsiz qaytarilishini ta‘minlash;

4.4.4. Bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni sir saqlanishini ta‘minlash. Bunday ma‘lumotlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda uchinchi shaxslarga taqdim etish xolatlari bundan mustasno.

5. Taraflarning javobgarligi

5.1. Depozit summasini o‘z vaqtida qaytarmaganlik uchun Bank Mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o‘tgan summaning 0,01 foizi miqdorida penya to‘laydi, lekin penyaning umumiy miqdori o‘z vaqtida qaytarilmagan summaning 10 foizidan oshmasligi kerak.

5.2. Taraflar ushbu shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

5.3. Mijoz tomonidan depozit shartlari va ushbu shartnomada belgilangan talablarga rioya qilmaslik oqibatida yetkazilgan zarar uchun Bank javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi;

5.4. Mijoz hisobvaraqga kirim qilingan mablag‘larni qonuniyligiga shaxsan javobgardir.

6. Sanksiyalar bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish bo‘yicha shartlar

6.1. Ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda tomonlarning har biri o‘z faoliyatida iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblariga amal qilishini, ularni qo‘llab-quvvatlashini tan oladi xamda tasdiqlaydi.

6.2. Mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiya ta‘sir doirasiga tushganda yoki tushishi xavfi mavjud bo‘lganda, Bank - operatsiyani o‘rganish maqsadida qo‘shimcha ma‘lumotlarni olish (so‘rash), operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash, rad etish, shuningdek mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.3. Bank – Mijoz va uning Kontragenti hamda u bilan tuzilgan bitim bo‘yicha har qanday zarur ma‘lumot yoki hujjatlarni (*kontragent to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, uning to‘liq rekvizitlari, uning affillangan shaxslari ro‘yxati, uning aksiyadorlari/muassislari tarkibi, uning ijro organi, mansabdor shaxslari, xodimlari, mahsulot to‘g‘risida, jo‘natish hujjatlari, mahsulotning spetsifikatsiyasi, tashuvchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va b.*) sanksiyalar ro‘yxatida mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida Mijozdan talab qilishga, Mijoz tomonidan barcha zarur hujjat/ma‘lumotlar taqdim qilinmagan xollarda, Mijozga xizmat ko‘rsatishni rad etish huquqiga ega;

6.4. Bank har qanday sanksiya va embargolar bilan bog‘liq xatarlar oqibatida Mijozning topshirig‘iga asosan amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha pul mablag‘larining qaytarilishi, bloklanishi, muzlatilishi, yo‘qolishi yoki shu kabi boshqa xolatlar uchun javobgar bo‘lmaydi. Shuningdek, xar har qanday sanksiyalar ta‘siri sababli Mijozga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

7. Fors-major holatlari

7.1. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo‘ladilar;

7.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo‘lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

8. Korrupsiyaga qarshi shartlar

8.1. Taraflar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o‘z faoliyatida korrupsion xarakterlarni to‘liq ta‘qiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag‘lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta‘minlash, ma‘muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta‘minlashni to‘liq rad etadi. Tomonlar o‘z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo‘lsa) talablariga amal qiladilar.

8.2. Taraflar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish chog‘ida na o‘zlari, na ijroiya organi, na ularning masabdor shaxlari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to‘lovlarni taqdim etishni taklif

qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklarini kafolatlaydi.

8.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart. Yozma xabarnomalar "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens ishonch liniyasi" kanallari (**tel:0-800-120-8888, veb sayt www.sqb.uz, Telegram messenjer SQB AntiKor (@sqbantikor_bot)**) orqali amalga oshiriladi.

8.4. Ushbu bo'lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

8.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlanagan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

9. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha shartlar

9.1. Mijoz tomonidan bank xizmati va (yoki) mahsulotlaridan foydalangan holda gumonli va (yoki) shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligi aniqlangan taqdirda, Bank bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi to'g'risida Mijozdan yozma tushuntirish va asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etilmaguncha xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish va (yoki) rad etish huquqiga ega. (Gumonli va shubhali operatsiyalarga ta'rif amaldagi qonunchilik hamda Nizom №2886ga muvofiq belgilanadi).

9.2. Bank quyidagi hollarda Mijozni oldindan xabardor qilmasdan operatsiyalarni amalga oshirishni to'xtatib turadi (bunda hisobvaraqa pul mablag'larini kiritish operatsiyalari mustasno) va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkni bloklaydi:

- operatsiya ishtirokchilaridan biri terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa;

- operatsiya ishtirokchilaridan biri ro'yxatga kiritilgan shaxs nomidan yoki uning topshirig'iga asosan harakat qilayotgan bo'lsa;

- operatsiyani amalga oshirishda foydalanilayotgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk to'liq yoki qisman ro'yxatga kiritilgan shaxsga tegishli yoki uning nazorati ostida bo'lsa;

- operatsiya ishtirokchisi bo'lgan yuridik shaxs ro'yxatga kiritilgan shaxsning mulkida yoki nazorati ostida bo'lsa;

- pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk ro'yxatga kiritilgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita tegishli bo'lsa yoxud ularga aloqador manbalardan olingan bo'lsa.

9.3. Mijoz Bankning talabiga binoan o'zining identifikatsiya ma'lumotlarini, yakuniy benefisiar mulkdor (UBO) to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda operatsiyalarning iqtisodiy mazmunini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart.

Mijoz taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, to'liqligi va dolzarbligi uchun javobgar hisoblanadi hamda ular o'zgargan taqdirda darhol Bankni xabardor qilishi lozim.

9.4. Bank Mijozni identifikatsiya qilish (KYC), qayta identifikatsiya qilish (re-KYC), shuningdek, zarur hollarda kengaytirilgan tekshiruv (EDD) o'tkazish huquqiga ega.

Bank Mijoz va uning benefitsiarlarini milliy va xalqaro ro'yxatlar bo'yicha tekshiradi hamda muntazam ravishda qayta skrining (re-screening) amalga oshiradi.

9.5. Bank Mijozdan operatsiyalar, mablag'lar kelib chiqish manbalari, kontragentlar va boshqa zarur ma'lumotlar yuzasidan qo'shimcha hujjat va axborotlarni talab qilish huquqiga ega.

Mijoz tomonidan talab etilgan ma'lumotlar belgilangan muddatda taqdim etilmagan taqdirda, Bank operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish, xizmat ko'rsatishni to'xtatish yoki cheklash huquqiga ega.

9.6. Bank shubhali operatsiyalar to'g'risida vakolatli organlarga qonunchilikda belgilangan tartibda axborot taqdim etadi hamda bunday axborot berilganligi to'g'risida Mijozni xabardor qilmaslik huquqiga ega.

9.7. Bank Mijozlarga xizmat ko'rsatishda riskga asoslangan yondashuvni qo'llaydi hamda yuqori darajadagi xavf aniqlangan hollarda operatsiyalarni amalga oshirishni cheklash yoki rad etish huquqiga ega.

Yuqori xavfli Mijozga nisbatan kengaytirilgan nazorat choralarini qo'llash va qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish huquqiga ega.

9.8. Quyidagi hollarda Bank shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli:

- Mijoz tomonidan AML/CFT talablariga rioya etilmagan taqdirda;
- noto'g'ri, to'liq bo'lmagan yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim etilganda;
- Mijoz Bank bilan hamkorlik qilishdan bosh tortganda;
- yuqori darajadagi AML/CFT riski aniqlanganda.

10. Axborot xavfsizligiga oid shartlar

10.1. Qarz oluvchi quyidagilarga majbur:

10.1.1. Bank tomonidan yuboriladigan xabarlar, jumladan mobil ilovadagi bildirishnomalar, SMS va PUSH-xabarlarini diqqat bilan o'rganib chiqish;

10.1.2. Bankdan firibgarlik belgilari aniqlanganligi to'g'risidagi xabarlarini olganidan keyin har qanday to'lov amaliyotlarini tasdiqlashda ehtiyotkor bo'lishi;

10.1.3. O'zining qurilmasi yo'qolganligi yoki uchinchi shaxslar tomonidan qurilmani boshqarishga nazorat o'rnatilganligini aniqlagan paytdan boshlab zudlik bilan biroq 1 (bir) kundan kechiktirmay Bankni xabardor qilish;

10.1.4. O'zining rozilgisiz amalga oshirilgan operatsiya faktini aniqlagan paytdan boshlab 1 (bir) kun ichida bu haqda Bankni xabardor qilish;

10.1.5. Bankka o'zining aloqa ma'lumotlarini taqdim etishi, ushbu ma'lumotlar Bankning foydalanuvchi bilan bog'lanishi uchun zarurligi, agar ushbu ma'lumotlar o'zgarsa, foydalanuvchi o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida bu haqda Bankka xabar berish;

10.1.6. O'zining bank ilovalariga kirish va bank kartasidan foydalanish imkonini beruvchi ma'lumotlari (jumladan, pasport ma'lumotlari, login, parol, pinkod, bank kartasi ma'lumotlari, elektron raqamli imzo, telefon qurilmasi, mahfiy so'z, qabul qilingan SMS xabarlardagi ma'lumotlar va boshqalar)ni boshqa shaxslarga bermaslik, ularni har qanday ko'rinishda olish imkoniyatini yaratmaslik;

10.1.7. Bankning so'roviga ko'ra foydalanuvchi operatsiyani o'zi mustaqil ravishda amalga oshirganligi yoki uni foydalanuvchining topshirig'i yoxud ixtiyoriy roziligi bilan uchinchi shaxs bajarganligi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishi shart. Shuningdek, foydalanuvchi firibgarlik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham taqdim etishi lozim.

10.2. Yuqorida belgilangan majburiyatlar bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi natijasida kelib chiqqan har qanday holatlar (jumladan, qo'lga kiritilgan ma'lumotlar natijasida **uchinchi shaxslar** tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar va boshqa harakatlar) va har qanday ko'rinishdagi zararlar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

10.3. Bank tomonidan foydalanuvchi/mijozga firibgarlik belgilari aniqlanganligi to'g'risida oqilona muddatda ma'lumot beriladi.

11. Nizolarni hal qilish

11.1. Ushbu shartnomani bajarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar, agar iloji bo'lsa, tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

11.2. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning iloji bo'lmasa, taraflar ularni belgilangan tartibda shartnomani imzolagan BXO/BXM joylashgan hududdagi sudga ko'rib chiqish uchun taqdim etadilar.

12. Yakuniy qoidalar

12.1. Mazkur shartnoma shartnomasi akseptlanganidan va depozit summasi Bankning hisobvarag'iga kelib tushganidan vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

12.2. Depozit summasi va unga hisoblangan foizlar Mijozga to'liq qaytarib berilganidan so'ng ushbu shartnoma shartnomasi o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi.

12.3. Mazkur Shartnoma shartnomasida ko'rsatib o'tilmagan holatlar amaldagi qonunchilikka asosan hal qilinadi.

12.4. "Banklardagi depozitlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasiga asosan kafolatlash obyekti hisoblangan depozit bo'yicha to'lanadigan kompensatsiya miqdori quyidagi miqdorni tashkil etadi:

- kafolatlash obyekti qoldig'ining to'liq hajmini, agar uning miqdori ikki yuz million so'm yoki undan kam bo'lsa;

- ikki yuz million so'mni, agar kafolatlash obyektining qoldig'i ikki yuz million so'mdan ko'p bo'lsa.

12.5. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa ham bir xil va bir xil kuchga ega. Har bir tomon ushbu Shartnomaning bitta nusxasiga ega.

Bank rekviztlari:

"O'zsanoatqurilishbank" ATB

Manzil: Toshkent sh., Yunusobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 3 uy.

MFO: 00440; STIR: 200 833 707 Telefon: (99871) 200-43-43, 1180

Veb sahifa: www.sqb.uz